

Toshkent viloyati Zangiota tumani XTMFMT
va TEB tasarrufidagi 56-umumiy o'rta ta'lim
maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Mahmudova Ziroatning

"noananaviy dars usullaridan foydalanish"

3-sinflar uchun

DARS ISHLANMASI.

***Zangiota tumani XTMFMT va TEB
tasarrufidagi 10-son
boshlang'ich maktab
3-SINF O'QISH DARSLIGI.***

Fan: o'qish

Sinf: 3-sinf

Mavzu: "Halollik« o'zbek xalq ertagi.

Maqsad- Ta'limiy: "Halollik " ertagini o'qish .
O'qish darslari orqali o'quvchilarni bilim,
ko'nikmava malakalarini shakllantirish.Darsda
o'quvchilarni faollashtirish. Ularni barkamol
shaxs sifatida voyaga yetishga ko'maklashish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni halollik ruhida
tarbiyalash. Ularda nutq madaniyatini
shakllantirish hamda uni hayotda qo'llay olishni
o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: hikoya qilish, so'zlash, nutqni o'stirish.

Dars metodi: guruhlar bilan ishlash.

Dars jihozi: o'zbek xalq ertaklari asosidagi rasmlar, "Halollik"

ertagiga ishlangan rasm.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Darsning borishi:

I.1) O'tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash.

2) Kirish. Davomat. Tayyorgarlikni aniqlash.

3) Ma'naviyat daqiqasi. Kuz fasli, sana, kun haqida ma'lumot berish.

- Xalq og'zaki ijodiga oid ertaklar ,qo'shiqlar, maqol topishmoqlar, aytishuvlar kirishi va o'tgan darsda o'tilgan "Botir mergan va chaqimchi "ertagini mustahkamlash, baholash. Savol-javoblar asosida mustahkamlash.

Savollar:

Botir mergan podshoning oldiga nima uchun navkarlar bilan bormabdi?

Podsho bilan Botir merganning suhbatini so'zlash.

Podsho chaqimchini nima uchun jazolabdi?

Ertak qahramonlaridan qaysi biri sizga yoqdi? Nima uchun?

II. Yangi mavzu bayoni.

"Halollik "ertagini o'qituvchi o'qib beradi. O'quvchilar guruhlariga bo'linadi. Ertak asosida guruhlar nomlanadi.

I-guruh- "Halollik" guruhi

II-guruh-"Donishmand" guruhi

III-guruh -"Dehqon " guruhi.

Kerakli asos yaratiladi. Yangi mavzu "Halollik " ertagi asosida mustaqil tayyorlanish uchun qiziqarli savollar beriladi:

I-guruh "Halollik" guruhiga

- 1. Ertak mazmunini so'zlang.***
- 2. Ertakda ishtirok etgan qahramonlarni sanang.***
- 3. Boy dehqon va oshnasiga qanday baho berasiz?***

II- guruh "Donishmand " guruhiga

- 1. Boy dehqon nima uchun o'z yerini sotibdi?***
- 2. Kambag'al dehqon va uning oshnasi nqma uchun donishmand huzuriga borishdi?***
- 3. Donishmand ularga qanday maslahat beribdi?***

III-guruh "Dehqon" guruhiga

1. Siz nima deb o'ylaysiz, kambag'al dehqon to'g'ri ish qildimi?
2. Ertakdagi qaysi qahramon sizga yoqdi?
3. Ertak mazmuniga mos maqol ayting?

Guruhlar javoblariga ko'ra ball to'playdilar. Ballar uch xil rang olmalarda : yashil - 5 ball, qizil-4-ball, sariq-3-ball orqali ifodalanadi. So'ngra sardorlar uchun alohida testlar beriladi.

1. Boy dehqon yerni kimga sotdi?

- a) Boyga**
- b) Kambag'al oshnasiga**
- c) Donishmandga**

2. Kambag'al dehqon yerni haydaganda nima topib oldi?

- a) To'nka**
- b) Sehrli g'or**
- c) Tilla xumcha**

3. Donishmand ularga qandav maslahat berdi?

- a) "Boy dehqonga ber " dedi**
- b) "qishloqdagi vetim-vesir va beva-bechoralarga bergin"**
- c) "oozing topding, o'zing ol"**

***Halollik
to'g'risida
maqollar toping!***

Halol boylik qilar sheryurak, O'g'irlik mol qilar jonsarak.

Ishlab topgannig oshi lazzatli.

Saxiy topsa bo'lib yer, Baxil topsa bo'kib yer.

O'z mehnatidan non yegan kishi, Hotam minnatidan ozod yoz-qishi.

Mehnatdan kelsa boylik, Turmush bo'lar chiroylik.

Halol mehnat, yaxshi odat, Berur senga baxt-saodat.

Lug at so 'zlar ustida ishlash.

Tanob - yer o'lchov birligi.

Omoch- yer haydaydigan asbob

***Xumcha-idish,tilla, oltin ,qimmatbaho
tosh solingan idish Donishmand-ko'p
narsani biladigan, bilimdon olim va
dono***

Dam olish daqiqasi

Kulrang g'ozlar uchdilar,

Ko'lmakchaga qo'ndilar.

Uyon buyon qarashib.

Yana uchib ketdilar.

Don cho'qiydi oppoq tovuq,

Suv ichida qorasi.

Qo'shilganda olasi,

Nechta bo'lar hammasi? kabi.

Guruhlarga tez aytish topshirig'i beriladi.

1. Aziza
Anoroyga alla
aytdimi, ashula
aytdimi?

2. Bolalar
bahorning
boychechagiga
boqishar.

3. Diyorani
Dildorani dadasi
davoladi.

4. Gilamning
gullari
go'zalmi, gilam
go'zalmi?

5. Jamol jalada
jadallab jo'nadi.

"Halollik " mavzusi klayster usulida mustahkamlanadi.

Halol odam

Yetim,yesir kambag'allarga homiy

Kambag'al dehqon

Saxiy inson

Mehnatkash inson

To'g'riso'z (xumcha tillasini yashirmagan)

Saxiy dehqonning fazilatlari shu tarzda sanaladi.guruhlarga ona-tili fanidan xusnixatlarini nazorat qilish maqsadida ertakdan so'zlar aytiladi. Yozuv taxtasida 3 guruhdan 3 o'quvchi "Xotira mashqi" tarzida yozadilar.

***Masalan: tanob, omoch,
yer,donishmand, dehqon...***

*So'ngra III-guruhga ertak
asosida rasm chizish topshiriladi.
Guruhlarga o'qish texnikasidan
so'nggi topshiriq, "kim ko'p va
to'g'ri o'qiy oladi?".*

Rebus. Guruhlardan qaysi biri birinchi topadi?
Rasmlarning bosh harflarini
topsangiz, mavzuga oid so'z kelib chiqadi.



M E H N A T

O'QISH DARSLIGINING 31-BETDAGI RASM CHIZILADI.

Ertak o'quvchilar bilan birgalikda sahna ko'rinishi qilib tayyorlanadi. (vaqt reglamenti asosida.) Jami guruhlardagi "olma" ballar sanaladi, yakunlanadi. Golib guruh aniqlanadi, rag'batlantiriladi, ballar o'quvchilar ishtiroki asosida baholanadi. Xulosa.

Uyga vazifa: *“Halollik ” ertagi asosida rasm ishlash va so'zlasb kelishga tayyorlanish.*

Dars tugadi, bor bo'ling,

Keying darsga tayyor bo'ling.

Dars yakunlanadi.

**E'TIBORINGIZ UCHUN
RAHMAT !!!**